

<https://gospodarkainnowacje.pl>

GOSPODARKA I INNOWACJE



Volume: 71 | 2026

Economy and Innovation

ISSN: 2545-0573

For more information contact : editor@gospodarkainnowacje.pl

SULAYMON BOQIRG‘ONiy HIKMATLARI: TASAVVUFiy MEROS VA MA‘NAViy TARBIYA MANBAI

*Fayziyeva Dilorom Shabonovna**TOSHDO‘TAU 3-kurs tayanch doktoranti*

ARTICLE INFO.

Abstract:

Keywords: *Sulaymon Boqirg‘oniy, Hakim ota, tasavvuf, hikmatlar, Qur‘on va hadis, ma‘naviy meros, axloqiy g‘oyalalar.*

Mazkur maqolada tasavvuf adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Sulaymon Boqirg‘oniy (Hakim ota) hayoti va ijodi yoritiladi. Unda uning Qur‘on va hadis asosida yaratilgan hikmatlari, tasavvufiy g‘oyalari, ma‘naviy-tarbiyaviy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlarida talmih san‘ati, islomiy qadriyatlarining ifodasi hamda bugungi kun yoshlarini tarbiyalashdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2026 LWAB.

Mustaqillikka erishgan yilimizdan boshlab milliy qadriyatlarimizga, otabobolarimiz merosiga alohida e‘tibor va diqqat qaratila boshlandi. Natijada ko‘pgina avliyo va allomalarimizning boy madaniy merosi qaytadan tiklandi va asarlari nashr etildi. Shunday ulug‘ zotlardan biri Xoja Ahmad Yassaviyning uchinchi xalifasi, yassaviya tariqatining yetuk namoyandasi, o‘z fazilatlarini bilan “Hakim” unvoniga sazovor bo‘lgan Sulaymon Boqirg‘oniy – Hakim otadir. Sulaymon Boqirg‘oniy, ya‘ni Hakim ota hijriy 582-yil–milodiy 1186-yilda vafot qilgan. Tug‘ilgan yili aniq emas. Qayerda tug‘ilgani haqida turli xil qarashlar mavjud. Ayrim manbalarda u kishining Xorazmda tug‘ilgani aytilsa, keyingi topilgan ba‘zi shajaralar u kishining ajdodlari Abubakr Siddiq roziyallohu anhuga borib taqalishini tasdiqlaydi va tug‘ilgan joyi haqida shunday xabar beradi: “Sabronda (Turkistonda) Adog‘ yerinda Cho‘rloq arig‘i boshindagi chashma bo‘yida (ya‘ni, Qarnoqda) Sulaymon tug‘ildi”, deyiladi. O‘tgan ulug‘ zotlar, aziz-u mashoyixlar hamisha o‘zlarini o‘qib, gunohkor bilib, manmanlik va kalondimog‘likni keskin qoralaganlar. Manbalarda Hakim ota bilan bog‘liq turli ta‘rif va naqlarni uchratish mumkin. Yassaviyshunos olim Nodirxon Hasanning ta‘kidlashicha, Haziniy “Javohir ul-abror”da Ahmad Yassaviy shogirdlarini tilga olar ekan, Hakim otani zikr, fikr va mushohadada doim, xalqni irshod qilishda qoim, komili mukammal as‘hobi suffa qatorida sanaydi. Shuningdek, Piri Turkistonning amri bilan Bobo Mochin, Imom Marg‘oziy kabi

kishilarning tavba qilib, Yassaviyga murid bo'lishlari uchun Hakim ota ma'naviy ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlaydi. Yana "Javohir ul-abror"da Yassaviy hikmatlarida ko'p uchraydigan xumi ishq iborasining kelib chiqishi ham Hakim ota bilan bog'liq ravishda qayd etilgan.¹ Boqirg'oniy she'rlarining tili sodda, ifodasi xalqona bo'lgan. Lekin bu so'fiy shoir ijodiyotining tub mohiyatini tasavvufiy g'oyalar tashkil etadi. Boqirg'oniyning din va tasavvuf, ishq va axloqdan saboq beruvchi asarlari Turkistonda keng tarqalib, sevib o'qilgan. Islomiy ilmlarni yaxshi bilgan Boqirg'oniy she'rlarida "Qur'on" oyatlari, hadislardan iqtiboslar keltiradi. Hikmatlarida oyat va hadislarining ma'no va mazmunlarini singdirib, yaxshilik va yomonlik, savob va gunoh ishlarni anglatib, tushuntirib o'tadi. Talmih san'ati orqali ulug' payg'ambarlar va avliyolar qissalariga murojaat etib, ulardan ibrat olishga chaqiradi. "Qur'on" va hadisni qanchalik chuqur bilsak, Boqirg'oniy hikmatlarini ham shu qadar teran anglaymiz. Ulug' mutasavvif bir hikmatida sakkizta turli ma'nodagi oyalarni keltiradi. Dunyo va oxirat hayotiga tegishli bo'lgan har bir oyat mazmuni kishini chuqur o'yg'a toldiradi, do'zax va jannat haqida mushohadaga undaydi.

Iyshim, hushim, maishatim, jumla tonib,

Bulg'aymuman, Yo Rab, sani tilasam man.

"Illo man atalloha biqalbin salim" tavfiq tabib, Bulg'aymuman,

Yo Rab sani tilasam man.

Oshiq dunyoviy tashvishlardan kechib, salim (pok va gunohsiz) qalbi bilangina Yaratuvchi zotga talpinishi, uni istashi kerak. Boqirg'oniy shu ma'noga ishora qilib, "Qur'on"dagi "Illo man atalloha biqalbin salim" – kimki Xudoning oldiga aybsiz, pok qalbi bilan kelsa, murod topadi, ("Shuaro" surasi, 88) oyatini keltiradi. Bu oyatning to'liq tafsirida aytilishicha, Qiyomat kun Allohning huzurida mol-u dunyo va farzand (insonga) foyda qilmaydi. Lekin (foйда qiladi) kimki Xudoning (dargohiga aybsiz, pok qalbini keltirsa (ya'ni, gunohdan forig' qalb bilan Xudo dargohida tursa). (Qarang: "Shuaro" surasi, 89-oyat). Ya'ni har qanday holatda ham orif va oshiqlar samimiy, pok va nurga to'la qalblari bilan maqsadlariga erishganlar. Yuqoridagi satrlarning tub mazmunida mosuvodan kechib, salim qalb bilan asl maqsadga yetishish anglashilib turibdi. Keyingi baytlarda ham bevosita Haqqa yaqinlashish, uni istash yo'lidagi choralar ko'rsatib berilgan. Bunda zorlanish va qayg'urishning qamrovi yanada kengroq ko'zga tashlanadi: Bu dunyoning ishratidin ingransam man, Saharda uyg'onib zor ingransam man. "Yo ayyuhallazina..." ma'nisiga, qotlansam man, Bilg'aymuman, Yo Rab, sani tilasam man. Yuqoridagi baytda "ingranmoq" ikki ma'noda qo'llangan. Bezor bo'lmoq, nafratlanmoq hamda ingrab yig'lash. Ya'ni dunyoning maishatlaridan bezib, saharlarda zor yig'lashni istagan oshiq Allohning eslatmasini shior qilib, o'zini va yaqinlarini bu dunyoda gunohlardan va oxiratda do'zaxdan asrash haqidagi ushbu oyatni o'ylaydi. Matnda kelgan "Yo ayyuhallazina..." oyatining to'liq shakli shunday: "Yo ayyuhallazina omanu(v) qu(v) anfusakumva ahli kum noran" – "Ey imon keltirgan musulmonlar, o'zingizni (ma'siyat va gunoh ishlarga qo'l urmasdan) hamda uy ichidagi ahli xonadoningizni (nasihat va to'g'ri yo'lg'a boshlab) olovdan (do'zaxdan) saqlang!" ("Tahrim" surasi, 6-oyat).

Xullas, Yaratuvchi huzurida o'zini ojiz bilib, ko'z yoshlar to'kkan oshiq, Alloh eslatmalariga amal qilib, uni istash va topishga intiladi. Shunday qilgach, "sani tilasam man" haqdor bo'lamanmi, deya Yaratuvchiga xitob qiladi... Ayni paytda bu xitob zamirida zorlanish va yalinish ohanglari sezilib turadi. Uning purma'no hikmatlari bugungi kunda butun dunyo turkiy tasavvuf ixlosmandlari tomonidan sevib o'qiladi. Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlari islom haqiqatlari, tasavvuf sirlaridan bahs yuritgan ulkan bir ma'naviy xazinadir. She'rlarida dunyo va oxirat hayoti bilan bog'liq rang-

¹ Haziniy. Javohir ul-abror. Istanbul universiteti kutubxonasi, Turkiy qo'lyozmalar bo'limi, №3893.

barang mavzularni qalamga oladi. Boqirg'oniyni o'tmish ajdodlarimiz "aqli komil" va "ma'rifati shomil", "qanoati tamom", "shukronayi ne'mati ilohiy"dan ta'lim o'rgatgan shoir bo'lganligi uchun qadrlashgan. U "lutf-u muruvvat", "izzati mutavoze", "axloqi hamida", sidq-u sadoqatni ulug'laganligi tufayli asrlar davomida el mehrini qozongan. Uning qalbi "shavqi ilohiy"ga to'la bo'lganidan ishq asrorlaridan so'zlaydi. Nafsni isloh qilib, botinni poklab, riyozat va sadoqat bilan Haq vaslini qo'msaydi O'tmish adabiy merosimizda Sulaymon Boqirg'oniy asarlarining alohida o'rni bor. Uning ijtimoiy-ma'naviy, ta'lim-tarbiyaviy ruhdagi asarlari bugungi kunda ham o'zining axloqiy va ma'rifiy qimmatini yo'qotgani yo'q. Zero, insonni komillikka, ezgulikka va savobli ishlar qilishga da'vat etguvchi asarlarning umri boqiy bo'ladi. Sulaymon Boqirg'oniy izdoshlari va avlodlarining Movarounnahr va undan tashqaridagi ilmiy-amaliy faoliyatlarini yanada chuqurroq o'rganish va yoshlarimizga o'rgatish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haziniy. *Javohir ul-abror*. Istanbul universiteti kutubxonasi, Turkiy qo'lyozmalar bo'limi, №3893.
2. Hasan N. *Yassaviy va uning xalifalari*. Toshkent: Fan nashriyoti, 2004.
3. Usmonov O. *Tasavvuf va adabiyot*. Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
4. Hayitmetov A. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Ertayev A. *Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlari va ularning talqini*. Turkiston, 2016.